

**RIMNING ILK SHOIR VA ADIBLARI****Beknazarova M.K***Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Tillar kafedrasi assistent o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Yunon adabiyoti, antik davr adabiyoti beshiklarida evropa sanati va adabiyoti o'z kelajagini allalagani bor gap. Yunon xalqi o'z mustaqilligidan ayrilib, ilmu-fan, san'at va adabiyot sohasida inqiroz ketayotgan bir vaqtida Italiya tuprog'ining g'arbiy qirg'oqlarida antik dunyo adabiyotining ikkinchi tarmog'i-Rim adabiyoti paydo bo'la boshlaydi. Yangi adabiyot Italiya yerlarini birlashtirish ishida xizmati singan lotin qabilasi tilida yaratiladi.

**Kalit so'zlar:** dunyo adabiyoti, Italiyaning g'arbiy qirg'oqlari, antik dunyo adabiyoti, sub'ektivizm, Evropa mustabidlik tizimi, imperiya, quidorlik,

**Annotation:** Greek literature and antiquity literature are in the cradle of European art and literature that predict their future. At a time when the Greek people were losing their independence and a crisis was going on in the field of science, art and literature, a second branch of the literature of the ancient world, Roman literature, began to appear on the western shores of Italian soil. The new literature is created in the language of the Latin tribe whose service in the work of uniting the lands of Italy is broken.

**Keywords:** world literature, west coast of Italy, ancient world literature, subjectivism, European system of independence, empire, slavery,

Ulug' madaniyat maxsullari, davlat arboblari, ilk teater, yozma adabiyot.

Rimliklar necha asrlar mobaynida yunon adabiyoti yaratgan tayyor badiiy meros andazalaridan o'rnak olib, ana shu qadim va qimmatbaxo na'munalar asosida o'zlarining milliy adabiyotlarini yaratdilar. Rim adabiyotining beshigini tebratgan, uni atak-chechak qildirgan va nihoyat, voyaga yetishda ko'maklashgan kishilar chindan ham Gomer, Eevriped, Sofokl, Demosfen, Pindar va bir qancha yunon adabiyotining boshqa ulug' zotlari bo'lgan. Biroq har ikkala xalqning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivoji va halokati o'rtasida umumiy o'xshashlik bo'lsada, Rim qo'ldorlik jamiyatining o'sish va yemmirilish jarayoni tamomila boshqa bir tarixiy sharoitda, bo'lak bir geografik muhitda sodir bo'lgan, butunlay boshqacha bir sur'at bilan taraqqiy etgandir. Madomiki Rim jamiyati Yunon jamiyati bosib o'tgan yo'ldan borgan bo'lsa ham, Rim yunonlardan ilgarilab kettgandir. Rimliklar yunonlarning qaysi bir ma'naviy me'rosini qabul qilmasınlar, avvalo bu merosni milliy ehtiyojlariga, milliy-g'oyaviy talablariga, tarixiy sharoitlariga moslashtirib qabul qilganlar, uni o'z Vatan tuproqlariga monand taqaqqiy ettirganlar. Xullas, Rim adabiyoti yunon adabiyoti erishgan yutuqlardan va , shu bilan birga , ellinizm davri adabiyotining bu xazinaga

qo'shgan qator yangiliklaridan to'la-tukis foydalanib, ham shakl, ham mazmun jihatidan yana bir daraja yuqori bosqichga ko'tariladi va, keyinchalik, yangi dunyo Yevropa adabiyotiga kuchlik ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan qudratli adabiyotga aylanadi.Darhaqiqat, o'yg'onish davrining qalam ahllari, XVII- asr yozuvchilari o'z faoliyatları davomida yolg'iz rim adabiyoti na'munalariga taqlid etadilar.Faqatgina XVIII -asrga kelib, burjua gumanistlari-Lessing, Giyote,Shiller bevosita yunon adabiyotiga murojaat qila boshlaydilar.

Eramizdan oldingi Iv-asrning oxiri, II- asrning boshlarida Rim davlati Italiya yerlarining asosiy qismini egallab xuddi Yunonistonda bo'lgani kabi, qulchilik asosiga qurilgan demokratik polis tizimini joriy etadi.III-asrning o'rtalarida Rimliklarning jahongirlik siyosati tobora kuchayib ular birin-ketin Italiya tuprog'ining qolgan qismlarini ham zabit etishga kirisha boshlaydilar. Italiyaning janubiy qirg'oqlarini va Sisiliya orolini egallah,Rim jamiyati tarixida ayniqsa juda muhim voqeа bo'lган. "Ulug' Yunoniston" nomi bilan shuhrat taratgan bu yerlar qadim zamonlarda ellinlar qo'liga o'tib , ularning mustamlakasiga aylangan edi.

Binobarin, qariyib besh asr davomida Evropa xalqlari badiiy ijodining shakllanishida asosiy rolni yunon adabiyoti emas, balki Rim adabiyoti o'ynaydi. Antik dunyo adabiyotlariga bo'lган munosabatning bu tariqa keskin o'zgarib ketishi natijasi o'laroq, XIX-asr olimlari orasida "Rim adabiyoti faqatgina taqlidchilikdan, yunon adabiyoti bilan Evropa adabiyoti o'rtasida vositachilik qilishda boshqa narsa bo'lмаган" degan fikrlar tog'diradi.Rim adabiyoti to'g'risidagi bu fikrlar noo'rin edi albatta. To'g'ri yunon adabiyotidan ancha keyin paydo bo'lган Rim adabiyotining rivoj topishida taqlidchilik katta o'rın tutganligini inkor etib bo'lmaydi, ammo Rim adabiyoti Yunon adabiyotidan ko'chirilgantussizbir nusxa emas, balki o'zining bir talaymuxim xususiyatlari bilan ulkan og'asidan ajralib turadigan mustaqil adabiyotdir.

Ma'lumki, yunon adabiyoti ibridoiy tuzimning yemirilishi, sinfiy jamiyatning paydo bo'lishi paytalarida tug'iladi va uning gullagan davri demokratik shahar quidorlik davlatlari polis yillariga to'g'ri keladi.Modomiki , Evropa uyg'onish davri adabioti va inchinun, XVII-asr klassitsizm adabiyoti so'nggi davri antik adabiyotiga ergashgan ekan, bu hodisa Rim adabiyotining Evropa mustabidlik tizimi g'oyalariga, uning ma'naviy talablariga va ayniqsa yangi zamon kishilari ongida tobora kuchayib borayotgan sub'ektivizm kayfiyatlariga monandligi bilan taqazo etilgan bir holdir.

Rimga kelgan yunonlar o'zlari bilan asrlar davomida shakllangan ulug' madaniyatları mahsullarini ham olib keladilar.Rimning madaniy hayotida yunonlarning xizmati singmagan deyarli hech qanday soha qolmagan desak xato bo'lmaydi.Ular badavlat xonadonlarda bolalarni tarbiya qiluvchi murabbiy, davlat arboblari qo'lida kotib bo'lib xizmat qiladilar; falsafa, notiqlik bobida saboq beradilar.yangidan urfga kirayotgan teatrarda aktiyor bo'lib ishlaydilar.

Ammo, yozma adabiyot yaratilishidan ancha ilgari, Italiya tuprog'ida yashovchi qabilalarning boy og'zaki ijodi mavjud edi. Lotin "Odessiya"sining qariyib ikki asr davomida Rim maktablarida asosiy o'quv kitobi bo'lib xizmat qilishi buning isbotidir. Taniqli tarjimon, shoir Liviy Andronik lotin tilida sahna asarlari-tragediya va komediylar yozgan. Shoirning bu sohadagi ijodi mahsullari ham bizga qadarkam yetib kelgan. Shu jumladan Neviy yozgan protekstatalardan ikkitasining nomini bilamiz-bulardan biri "Roma", ikkinchisi shoirning zamondoshi Klavdiy Marselning Klastidiy shaxri yaqinida Gallar bilan bo'lган jangi haqidagi "Klastidiy" tragediyasidir.

Neviy tragediyaga qaraganda komediya sohasida kengroq shuhrat qozonadi. Bu borada ham shoir o'zining hamkasbi Andronik yunon komediylarini Rim sahnasiga ko'chirib qo'ya qolmasdan birinchi marta Rim adabiyoti tarixida kontaminatsiya, ya'ni ikkita yunon komediyasidan bitta rim komediyasini yaratish usulini qo'llaydi. Plavt hamda Terensiy kabi mashhur komediyanavis shoirlar keyinchalik bu usuldankeng miqyosda foydalanganlar.

Enniy Rimning o'tkir poetik mahoratini "Annallar" (Solnomalar) dostonida yana ham kengroq namoyish qilgan. 60 ming misradan iborat bo'lgan 18 bobli salmoqdur bu asar butun Rim tarixini o'z ichiga oladi. Rim shoirlari Gomer dostonlari usullaridan epitetlar, o'xshatishlar va boshqa poetik vositalardan katta ustalik bilan foydalanib, ko'zlagan maqsadlariga erishishda katta muvaffaqiyatlarga erishadi.

Rim shoirlaridan yana biri Plavt bo'lib, u ham o'z ijodida yangi yunon komediasi vakillarining asarlarini Rim sahnasiga moslashtirish bilan shug'ullangan.

Rim adabiyoti yunon adabiyoti sarchashmalaridan oziqlanib o'z adabiyotlarini rivojlanishiga hissa qo'shganlar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. «Латинский язык и основы медицинской терминологии»-Минск.2015. Чернявский М.Н.
2. "Latin language"-Tashkent 2005. L.U. Khojayeva
3. «Латинский язык» ( для медицинских специальностей).Москва 2015. Ю.И.Городкова.
4. Maxmudov Zafar Mardonovich et al. AUDITORIYADAN TASHQARI TA'LIM-TARBIYAGA MAQSADLI, TIZIMLI YONDASHISH: //Научно-практическая конференция. – 2022.
5. Beknazarova Mokhiya Kenjayevna,Maaakhmudov Safar Mardonovich, Aitmurodova Perkhan Genjebayevna."THE MAIN METHODS OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING".Vol 10,Issue 11,November 2020.
6. Fomina, M. (2023). ADABIY ASARLARDAN KIRIB KELGAN SO 'Z BIRIKMALARINING TIBBIYOTDAGI DEONTOLOGIK MA'NOSI. Евразийский журнал академических исследований, 3(10), 284-286.